



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TEJAMKORLIK VA TADBIRKORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI

Namangan Davlat Universiteti “ Boshlang’ich ta’limda ijtimoiy fanlarni o’qitish metodikasi” kafedraasi o’qituvchisi Rapikov Ibrayimjon G’aniyevich

Annotatsiya

O’quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishda dastlab maktab va oilada tejamkorlik va tadbirkorlikni tashkil etishga imkon beruvchi shart-sharoitlar mavjudligi aniqlash muhim pedagogik ahamiyatga egaligi nazariy va amaliy jihatdan asoslandi. O’quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish mayllarni hosil qilish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o’rganishlari uchun qulay shart-sharoit yaratish, xom - ashyo izlab topish, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, savdo qilish, pul bilan muomala qilishga ota-onalar yaqindan ko‘maklashishlari lozimligi pedagogik jihatdan asoslab berildi. Maktab va oilada o’quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning samaradorlik darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan tajriba ishlarining aniq mazmun va metodika asosida tashkil etilishi tadqiqot farazi to‘g‘riligini asoslash imkonini beruvchi natijalarni olishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, raqobat, tavakkalchilik, tejamkorlik, tadbirkorlik, respondent, ziddiyat, tajriba, omil, hunarmandchilik.

Эффективность формирования бережливости и предпринимательства у младших школьников

Рапиков Ибрайимжон Ганиевич, преподаватель кафедры «Методика преподавания общественных наук в начальных классах» Наманганского государственного университета

Абстракт

Теоретически и практически обосновано важное педагогическое значение определения наличия условий, позволяющих организовать предпринимательство в школе и в семье в развитии предпринимательства у учащихся. Создать благоприятные условия для развития у студентов интереса и склонностей к предпринимательской деятельности, организации своей предпринимательской деятельности, изучения отношений рыночной экономики, поиска сырья, производства продукции и ее реализации, торговли, обращения с деньгами. Педагогически обосновывалось, что матери должны тесно помогать. Организация экспериментальной работы, направленной на определение уровня эффективности процесса формирования предпринимательских способностей у школьников и



школьников на основе конкретного содержания и методики, дает результаты, позволяющие обосновать правильность гипотезы исследования.

Ключевые слова: педагогика, конкуренция, риск, предпринимательство, респондент, конфликт, опыт, фактор, ремесло.

EFFECTIVENESS OF FORMATION OF THRIFT AND ENTREPRENEURSHIP AMONG ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Rapikov Ibrayimjon Ganiyevich, teacher of the "Methodology of teaching social sciences in primary education" department of Namangan State University

Abstract

The important pedagogical importance of determining the existence of conditions that allow the organization of entrepreneurship at school and in the family in the development of entrepreneurship in students was theoretically and practically justified. To create favorable conditions for students to develop interest and tendencies in entrepreneurial activities, to organize their entrepreneurial activities, to learn the relations of the market economy, to find raw materials, to produce products and sell them, to trade, to deal with money. It was pedagogically justified that mothers should help closely. The organization of experimental work aimed at determining the level of effectiveness of the process of developing entrepreneurial skills in school and family students on the basis of specific content and methodology provides results that allow to substantiate the correctness of the research hypothesis.

Key words: pedagogy, competition, risk, entrepreneurship, respondent, conflict, experience, factor, craft

Har qanday pedagogik muammoning ijobiy echimini topishda uning samaradorlik darajasini aniqlash muhimdir. O'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarning samarasi, xalq xo'jaligining rivojlanishi, iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ta'siri, sarflangan xom - ashyo, ishlab chiqaruvchi kuch va vositalar, ajratilgan mablag', mahsulotni bozorda sotish natijasida qo'lga kiritilgan daromad bilan belgilanadi. Bunda tejamkorlik va tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning tashkil etish turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, ishlab chiqarish raqobati hamda tavakkalchilikka asoslanishi bilan murakkab jarayon sanaladi. Shu sababli tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning tashkil etishga tayyorlanishda ko'plab ob'ektiv va sub'ektiv omillarni inobatga olish, shaxsiy xususiyatlarga e'tibor berish talab etiladi. Oila va maktab



hamkorligi asosida o'quvchilarni hunarmandchilik yo'nalishi bo'yicha tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish ga tayyorlash esa yanada murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda ota-onalarning pedagogik bilim va mahoratlari; o'quvchilarning turli hunar sirlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish, intilishlari; oiladagi mavjud shart-sharoitlar hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqishda ushbu omillarni inobatga olish nihoyatda muhim ekanligi nazarda tutildi.

O'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga oid tajriba-sinov ishlari dasturida quyidagilar o'z aksini topdi:

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi – o'quvchilarni muayyan yo'nalish bo'yicha hunar o'rganishga yo'naltirish orqali ularda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish .

Ushbu maqsadga amalga oshirish yo'lida quyidagi vazifalar bajarildi:

- 1) tasodifiy tanlov yo'li bilan maktab va oilalarni tajriba-sinov ishlariga jalb etish;
- 2) mazkur maktab va oilalarda hunarmandchilik yo'nalishi bo'yicha faoliyat yuritish shart-sharoitlari mavjudligini aniqlash;
- 3) maktab va oilalarga metodik yordam ko'rsatish orqali o'qituvchi va ota-onalarni o'quvchilarni hunarmandchilik yo'nalishi bo'yicha tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga tayyorlashga oid metodik bilimlar bilan qurollantirish;
- 4) o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari va xohish-istaklarini inobatga olish asosida ularni turli hunarlar asoslarini o'rganishga jalb etish;
- 5) milliy hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha muayyan hunarlar sirlarini o'rganayotgan o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish asosida ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish tamoyillari: izchillik; uzviylik; tizimlilik; maqsadga muvofiqlik; nazariya va amaliyot birligi; jamoa asosida faoliyat yuritish; vorisiylik; shaxsning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish; oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik.

O'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning ob'ektiv va sub'ektiv omillari:

a) ob'ektiv omillar: maktab va oilaning iqtisodiy ahvoli (ustaxona, hunarmandchilik asbob-uskunalar hamda faoliyat jarayonini xom - ashyo bilan ta'minlash imkoniyati), o'qituvchi va ota-onalarning o'quvchilarni hunar o'rganishga yo'naltirish, tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar bilan ta'minlanganligi;

b) sub'ektiv omillar: maktab va oiladagi sog'lom muhit, o'qituvchi va ota-onalarning pedagogik bilimlar hamda metodik malakaga egaliklari, o'quvchilarning hunar o'rganish,



tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning tashkil etish borasidagi xohish-istaklari, qiziqishlari va ehtiyojlari darajasi, ta'lim-tarbiya sub'ektlari (shu jumladan, o'qituvchi, ota-onalar va o'quvchilar) o'rtasida o'zaro psixologik birlikning qaror topganligi; maqsadlar yagonaligi hamda mavjud muammolarning birgalikda hal etilishi, o'qituvchi, ota-onalar va katta yoshli oila a'zolarining o'quvchilarga namuna ko'rsatishlari.

Tajriba-sinov ishlari jarayoniga respondentlarni jalb etish: tajriba maydonlari sifatida hududlarni belgilash (Termiz shahri), tasodifiy tanlov asosida tajriba - sinovida ishtirok etuvchi maktab va oilalarni belgilash, tenglik tamoyili asosida respondent o'quvchilarni tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirish.

Sinov jarayonida tashkil etiluvchi tadbirlar:

- 1) tanlab olingan maktab va oilalardagi o'quvchilarning shaxsi, ma'naviy-ahloqiy qiyofasi, mehnatga munosabati, tadbirkorlikka oid tushunchalarini aniqlashga oid anketa so'rovlarini o'tkazish;
- 2) respondent-o'quvchilar ishtirokida ularni hunar o'rganishga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga oid turkum mavzularda suhbat, uchrashuv, kecha, ko'rik-tanlov, sayohatlar uyushtirish;
- 3) tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish orqali ularni miqdor va sifat o'zgarishlarini tahlil etish.

Tajriba-sinov ishlari bosqichlari:

Asosiy bosqich – unda uzluksiz, tizimli, asoslovchi, shakllantiruvchi tajribalar tashkil etildi. Tajriba o'tkazish uchun oilalar aniqlandi. Undagi o'quvchilarni tadbirkorlikka jalb etish darajalari o'rganildi va omillari belgilandi. O'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga yordam beradigan tadbirlarning ishlanmalari ishlab chiqildi.

Shakllantiruvchi bosqich – unda keng ko'lamda tajriba-sinov ishlari olib borilib, o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga oid maxsus metodika sinovdan o'tkazildi.

Yakuniy bosqich – unda natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish jarayoni qiyosiy tahlil qilinib, uning natijalari matematik-statistik metod orqali aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida ko'zda tutilgan asosiy maqsad o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish qay darajada ekanligini aniqlash edi. Buning uchun suhbat, anketa metodlaridan foydalanildi.

Biz tadqiqot davomida amalga oshirgan dastlabki kuzatishlarimiz jarayonida o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning mavjud holatini aniqlashga harakat qildik. Shu maqsadda respondent ota-onalar, ustoz-shogirdlar o'rtasida suhbatlar, anketa so'rovlari tashkil etdik. Bir qator oilalarda o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik. Tajriba-sinov ishlariga Termiz shahridan



100 nafar, Farg'ona shahridan ham 100 nafar o'quvchilar jalb etildi. Respondent ota-onalar, ustoz-shogirdlar o'rtasida suhbatlar va anketa so'rovlari tashkil etildi.

Tadqiqot natijalarining samaradorligini aniq baholash maqsadida, biz kuzatgan va ilmiy metodik tavsiyalarimizni tatbiq qilgan oilalarni tajriba va nazorat guruhlariga bo'lgan holda kuzatuvlar olib bordik. Tajriba-sinov jarayonining barcha bosqichlarida ota-onalar va o'quvchilar faol ishtirok etdilar. Tajriba guruhidagi ota-onalar yordamida o'quvchilarda tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi asosida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Metodik ishlanmalar mazmunida o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish darajasini aniqlovchi mezonlar va tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi. 3 bosqichdan iborat tajriba-sinov ishlari jarayoni mazkur metodikani tatbiq qiluvchi tadbirlar shakli metodlar va vositalar bilan uyg'unlashtirildi. Tajriba guruhida ota-onalarning iqtisodiy savodxonlik darajasiga ko'ra rejalar tuzildi va o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish darajasi muntazam ravishda aniqlanib, ko'rsatkichlar hisobga olib borildi.

Ota-onalar e'tiboriga qaratilgan anketa so'rovnomalarining tarkibiga quyidagi savollar kiritildi:

1. Raqamli iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida tejamkorlik va tadbirkorlikning tutgan o'rni va uning ahamiyatini qanday izohlaysiz?
2. Oilada farzandlar orasida mehnat taqsimotini qanday tashkil etgansiz?
3. Sizningcha tejamkor va tadbirkor qay tarzda muvaffaqiyatga erishadi?
4. Oilaviy tejamkorlik va tadbirkorlikning afzallik tomonlari nimada?
5. Farzandingizni tejamkor va tadbirkorlikni shakllantirishga jalb etish orqali ularda qanday sifatlar shakllanadi va ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi?

Yuqorida qayd etilgan savollarga respondentlarning javoblari va ularning mazmuni o'rganilganda umumiy holda quyidagi ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi (3.1.1-jadval).

Ota-onalarning birinchi turdagi anketa savollariga bergan javoblari natijalari

Savollar tartibi	Respondentlar soni va olingan javoblarning natijalari			
	Jami – 200 nafar ota-ona			
	Yuqori	Yaxshi	O'rta	Past
1	94	46	16	44



2	66	44	34	56
3	70	41	42	47
4	79	49	35	37
5	94	43	19	44

Birinchi savolga ota-onalar quyidagicha javob berdilar: “tejamkor” va “tadbirkorlik” tushunchalari mustaqillikdan soʻng keng qoʻllanila boshlangan. Tejamkor, Tadbirkor ishbiarmon shaxs. Hukumatimiz tomonidan tejamkorlikka va tadbirkorlikka keng yoʻl ochilmoqda (94 nafari yuqori), tejamkorlik va tadbirkorlik asosida moddiy-maʼnaviy neʼmatlar yaratiladi. Bu esa iqtisodiyotni rivojlantirish uchun juda muhim (46 nafari yaxshi), tejamkor va tadbirkor hunar egasi

(16 nafari oʻrta), qolgan 44 nafar respondentlar bu savollarga aniq javob bera olmaganlar (qoniqarsiz).

Garchi respondentlar tomonidan “tejamkor”, “tadbirkorlik” atamaları haqida ilmiy jihatdan toʻliq maʼlumot olinmagan boʻlsada, biz oʻrtaga tashlagan savollarga ular maʼlum darajada javob berib, tejamkorlik va tadbirkorlik haqida qisman boʻlsada tasavvurga ega ekanliklaridan qoniqish hosil qilindi.

Ikkinchi savolga esa ular quyidagicha munosabat bildirdilar: oilada farzandlarimning yoshi, kuchi, imkoniyatidan kelib chiqib mehnatni taqsimlayman, oila aʼzolari hamjihatlik bilan ishlash kerakligini tushuntiraman (66 nafari yuqori), farzandlarimni mehnatsevarlik va ahloqiylikka oʻrgataman (44 nafari yaxshi), oila tadbirkorligi, albatta bolalarni mehnatga oʻrgatadi (34 nafari oʻrta), farzandlarim mehnatga koʻproq jalb etilsa, oʻqishlari pasayishi mumkin (56 nafari past).

Uchinchi savol boʻyicha javoblarda quyidagilar oʻz aksini topdi: mehnatning sifati, samaradorligi javobgarlik, maʼsuliyat hissi shakllansa (70 nafari yuqori), javobgarlik va masʼuliyat hissi shakllansa ish unumli boʻlib, daromad keltiradi (41 nafari yaxshi). Pulga ega boʻlish muhim (42 nafari oʻrta), qolgan 47 nafar respondentlar qoniqarsiz javob berdilar.

Toʻrtinchi savol boʻyicha javoblarda oila tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishi qayd etilgan Oila tejamkorlik va tadbirkorligiga amal qilganlar iqtisodiy jihatdan farovon yashaydilar (79 nafari), oila tejamkorlik va tadbirkorlik hamjihatlikni taʼminlaydi (49 nafari), oilaviy tejamkor va tadbirkorlik oilaning birgalikdagi mehnati (35 nafari), qolgan 37 nafar respondentlar javob bera olmadilar.

Oxirgi savolga olingan javoblar quyidagicha boʻldi: ularda mehnatga layoqat va aytilgan ishlarni soʻzsiz bajarish xislatlari seziladi, boshlagan ishini oxiriga etkazadi (94



nafar), o‘qishni ham oiladagi mehnatni ham o‘z vaqtida bajaradi (43 nafar), pulga qiziqishi ortadi (19 nafar), qolgan ota-onalar fikrlarini ochiq bayon etmadilar.

Ota-onalar tomonidan berilgan javoblar tajriba-sinov ishlarining keyingi bosqichlarida o‘z oldimizga qo‘yilgan muammoni ijobiy hal qilishimiz uchun imkoniyat yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 48 б.
6. Абдуллаев А., Айбешов Х. Бизнесни бошқариш сирлари. – Андижон: Бизнес-мактаб, 2002. – 144 б.
7. Абдуллаев А. Маънавият ва иқтисодий тафаккур. – Тошкент, Маънавият, 1999. – 104 б.
8. Абдурахмонов К.Х., Муртазоев Б.Ч. Меҳнат бозори. – Тошкент, 1999. – 100 б.
9. Абдусаломов М.У. Тадбиркорлар ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишнинг фуқаролик ҳуқуқий усуллари ва муаммолари: Иқтис.фанл.номз. ... дис.автореф. – Тошкент, 2002. – 23 б.
10. Абулқосимов Х.П. Хусусий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг социал-иқтисодий муаммолари: Иқтис.фанл.номз. ... дис.автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.
11. Жизнин С., Крупнов В. Қандай қилиб бизнесмен бўлиш мумкин? – Тошкент, Ўқитувчи, 1992. – 60 б.
12. Жумаев У.С. Ўсмирларда касб танлашга муносабат тизимини шакллантиришнинг ижтимоий-психологик асослари: Псих.фанл.номз. ... дис.автореф. – Тошкент, 2004. – 21 б.
13. Жўраев К. Ўсмирларни ўзликни англаш ва ўз-ўзини бошқаришга ўргатиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2005. -№2. – Б. 55-58.



14. Зокиров Н., Абдуғафуров А. Иқтисодий моделлаштириш амалиёти. – Тошкент, Ўзбекистон, 1997. – 72 б.
15. Зоҳидова Д.А. Ҳунармандчиликка кириш / Методик тавсиянома. – Тошкент, ЎМКХТРИ, 2001. – 52 б.
16. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари / Мухаррир Р.Ж. Ишмуҳаммедов. – Тошкент, ТДПУ, 2004. – 44 б.
17. Ирискулов Б. Оила тадбиркорлиги // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 2004. -№5. – Б. 33.

